



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI



PRESS-RELIZ



*Izoh: 2024-yil yanvar-dekabr hamda 2025-yil 1-yanvar holatiga ma'lumotlar dastlabki, qolgan davrlar bo'yicha yakuniy ma'lumotlar keltirilgan.*

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

### ASOSIY KO‘RSATKICHLAR

2024-yil yanvar-dekabr, dastlabki ma’lumotlar

# Doimiy aholi soni

(2025-yil 1-yanvar holatiga)



**37 543,2**  
ming kishi



**926 422**

nafar

**Tug‘ilganlar**

**24,9 ‰**

*Tug‘ilish koeffitsiyenti*



**174 413**

nafar

**Vafot etganlar**

**4,7 ‰**

*Vafot etish koeffitsiyenti*



**752 009**

nafar

**Tabiiy o‘shish**

**20,2 ‰**

*Tabiiy o‘shish koeffitsiyenti*



**2 229**

kishi



**10 842**

kishi



**Xorijdan  
ko‘chib kelganlar**

**Xorijga  
ko‘chib ketganlar**

## Doimiy aholi sonining umumiy o‘shishi



**+743,4** ming kishi

2024-yil 1 yanvarga nisbatan **2,0 ‰** ga oshgan.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

### ASOSIY KO‘RSATKICHLAR

2024-yil yanvar-dekabr, dastlabki ma’lumotlar

*Demografiya statistikasi – ijtimoiy-iqtisodiy statistika sohalaridan biri bo‘lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig‘ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi;*

### QAYD ETILGAN NIKOHLAR VA NIKOHDAN AJRALISHLAR



271 776<sup>ta</sup>

Qayd etilgan  
nikohlar soni



45 135<sup>ta</sup>

Nikohdan  
ajralishlar soni




### MING AHOLIGA NISBATAN:

Nikoh koeffitsiyenti, *promille*



7,3 ‰




Nikohdan ajralish koeffitsiyenti, *promille*

1,2 ‰



### Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni


(yillik ma’lumotlar)



● Qayd etilgan nikohlar, ming birlik

● Nikohdan ajralishlar, ming birlik


## O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 2025-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi



2025-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni **37 543,2** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **18 904,5** ming kishini, ayollar soni **18 638,7** ming kishini, shahar aholisi soni **19 135,8** ming kishini, qishloq aholisi soni **18 407,4** ming kishini tashkil etdi.


## Doimiy aholi sonining jinsi, shahar va qishloq joylari bo‘yicha taqsimlanishi

1-yanvar holatiga, ming kishi



*Aholi zichligi – muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;*


**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi**  
2025-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



O‘zbekiston Respublikasida 2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha **83,6** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,6** kishiga ortgan (2024-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **82,0** kishi).


Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida **6 948,1** kishi, Andijon viloyatida **804,9** kishi, Farg‘ona viloyatida **613,1** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati **9,9** kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **12,2** kishini tashkil etgan.

**Aholi zichligi dinamikasi**  
1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi




O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni  
2025-yil 1-yanvar holatiga

Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi




Hududlar bo‘yicha doimiy aholisi soni eng ko‘p Samarqand viloyatida **4 297,5** ming kishi, Farg‘ona viloyatida **4 144,7** ming kishi, Qashqadaryo viloyatida **3 639,3** ming kishi, eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida **930,8** ming kishi, Navoiy viloyatida **1 094,7** ming kishi va Jizzax viloyatida **1 537,6** ming kishini tashkil etgan.

Aholi ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan



Doimiy aholi sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida **11,4 %**, Farg‘ona viloyatida **11,0 %**, Qashqadaryo viloyatida **9,7 %**, Andijon viloyatida **9,2 %** va Namangan viloyatida **8,3 %** ni tashkil etgan.

Aholi ulushi nisbatan kam bo‘lgan hududlar, jami aholiga nisbatan



Doimiy aholisi sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida **2,5 %**, Navoiy viloyatida **2,9 %**, Jizzax viloyatida **4,1 %**, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida **5,4 %** ni tashkil etgan.

## II BO‘LIM. TUG‘ILISH


### O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan tug‘ilishlar

2024-yil yanvar-dekabr, ming kishi



#### Jinsi bo‘yicha taqsimlanishi 2024-yil yanvar-dekabr

##### O‘g‘il bolalar



##### Qiz bolalar



#### Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi 2024-yil yanvar-dekabr

##### Shahar




##### Qishloq




2024-yil yanvar-dekabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni **926,4** ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni **479,5** ming kishini, qiz bolalar soni **446,9** ming kishi, tirik tug‘ilganlar soni shahar joylarida **454,5** ming kishini, qishloq joylarida **471,9** ming kishini tashkil etdi.

#### Choraklar yakunlari, kishi/ulushi


##### 2024-yil yanvar-mart



##### 2024-yil yanvar-iyun




##### 2024-yil yanvar-sentabr



*Tirik tug‘ilish – nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishlaridan biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim;*

### Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-dekabr




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarni chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda, quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,7 %** ni, 2 nafar tug‘ilganlar **2,2 %** ni, 3 nafar va undan ortiq tug‘ilganlar **0,1 %** ni tashkil etdi.

*Tug‘ilganlar sonini aniqlashda Oila kodeksiga muvofiq, tug‘ilgan chaqaloqning onasi yoki otasining doimiy yashash joyiga qarab tug‘ilgan hududi aniqlanadi hamda o‘sha hududning aholisi soniga qo‘shiladi;*

### Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi

2024-yil yanvar-dekabr




2024-yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **10,7 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **82,5 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **6,8 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **39,3 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **59,5 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,2 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.



## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar


2024-yil yanvar-dekabr

### Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo‘yicha tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori Surxondaryo viloyatida **28,9** promille, Qashqadaryo viloyatida **28,0** promille, Namangan viloyatida **26,4** promille, eng kam ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida **20,7** promille, Toshkent shahrida **22,2** promille va Buxoro viloyatida **22,4** promilleni tashkil etgan.

### Tug‘ilishlar ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami tug‘ilishga nisbatan



Tug‘ilganlar sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida **12,0 % ga**, Farg‘ona viloyatida **11,1 % ga**, Qashqadaryo viloyatida **10,9 % ga**, Andijon viloyatida **9,3 % ga** va Surxondaryo viloyatida **9,1 % ga** teng bo‘lgan.

### Tug‘ilishlar ulushi kam bo‘lgan hududlar, jami tug‘ilishga nisbatan




Tug‘ilishlar sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida **2,4 %**, Navoiy viloyatida **2,8 %**, Jizzax viloyatida **4,2 %**, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **4,5 %** va Buxoro viloyatida esa **5,0 %** ni tashkil etgan.

### III BO‘LIM. VAFOT ETGANLAR

#### O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar

2024-yil yanvar-dekabr, ming kishi




#### Jinslar bo‘yicha taqsimlanishi 2024-yil yanvar-dekabr

##### Erkaklar



96,0  
ming kishi

##### Ayollar



78,4  
ming kishi

#### Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi 2024-yil yanvar-dekabr

##### Shahar



98,2  
ming kishi

##### Qishloq




76,2  
ming kishi


2024-yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar soni 174,4 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 96,0 ming kishini, ayollar soni 78,4 ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida 98,2 ming kishini, qishloq joylarida 76,2 ming kishini tashkil etdi.

#### Choraklar yakunlari, kishi/ulushi


##### 2024-yil yanvar-mart



##### 2024-yil yanvar-iyun




##### 2024-yil yanvar-sentabr



**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari;

## Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari


2024-yil yanvar-dekabr, har 100 000 aholiga nisbatan, kishi



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **57,6** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,4** foizi – o‘simtalardan, **6,3** foizi – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,8** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,1** foizi – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,1** foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **15,7** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar  
2024-yil yanvar-dekabr

Hududlar kesimida o‘limlar soni  
va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha vafot etish koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida **5,4** promille, Toshkent viloyatida **5,3** promille, eng kam ko‘rsatkich Jizzax viloyatida **4,1** promilleni tashkil etgan.

O‘limlar ulushi ko‘p bo‘lgan  
hududlar, jami o‘limga nisbatan



O‘limlar sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida **10,8 %** ga, Farg‘ona viloyatida **10,3 %** ga, Andijon viloyatida **10,2 %** ga, Toshkent shahrida **9,6 %** ga va Toshkent viloyatida **9,4 %** ga teng bo‘lgan.


O‘limlarni ulushi kam bo‘lgan  
hududlar, jami o‘limga nisbatan



O‘limlar sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida **2,6 %**, Navoiy viloyatida **2,8 %**, Jizzax viloyatida **3,5 %**, Xorazm viloyatida **5,2 %** va Buxoro viloyatida esa **5,5 %** ni tashkil etgan.

IV BO‘LIM. NIKOHLAR

O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan nikohlar  
2024-yil yanvar-dekabr, ming birlik



2024-yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **271,8** ming birlikni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **12,0 ming** birlikka kamaygan. 2020-yilning mos davri bilan taqqoslanganda **25,0** ming birlikka kamaygan.

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-dekabr

Shahar

50,3 %



**136,7**  
ming birlik

Qishloq



**135,1**  
ming birlik

2024-yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **271,8** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **136,7** mingtani (**50,3 %**), qishloq joylarida **135,1** mingtani (**49,7 %**) tashkil etgan.

Choraklar yakunlari, birlik/ulushi

2024-yil yanvar-mart



47,4 %

**23,1**



52,6 %

**25,5**

2024-yil yanvar-iyun



51,4 %

**50,1**



48,6 %

**47,3**

2024-yil yanvar-sentabr



52,2 %

**93,7**



47,8 %

**85,7**

*Nikoh* – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi;

### Nikohlanganlarning o‘rtacha yoshi

2024-yil yanvar-dekabr




2024-yil yanvar-dekabr oylari davomida qayd etilgan nikohlarda ayollarning o‘rtacha yoshi **22,3** yoshni, erkaklarning o‘rtacha yoshi esa **27,1** yoshni tashkil etgan. Qayd etilgan nikohlarning eng katta ulushi 25 yoshgacha bo‘lgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohlarning **81,9** foizini tashkil etgan.

*Nikoh yoshi* – O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda, nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin;

### Nikohlanuvchi ayollarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-dekabr, % da



## O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qayd etilgan nikohlar

2024-yil yanvar-dekabr

### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik




Hududlar bo‘yicha nikoh koeffitsiyenti eng yuqori Qashqadaryo viloyatida **8,1** promille Xorazm viloyatida **8,1** promille, Surxondaryo viloyatida **8,0** promille, eng past ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyatida **6,5** promilleni tashkil etgan.

### Nikohlar ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami nikohlarga nisbatan



Nikohlar sonining eng ko‘p ulushi Samarqand viloyatida **11,6 %** ga, Qashqadaryo viloyatida **10,8 %** ga, Farg‘ona viloyati **10,7 %** ga, Andijon viloyatida **8,6 %** ga va Surxondaryo viloyatida **8,6 %** ga teng bo‘lgan.


### Nikohlar ulushi kam bo‘lgan hududlar, jami nikohlarga nisbatan



Nikohlar sonining ulushi nisbatan kam Sirdaryo viloyatida **2,5 %**, Navoiy viloyatida **2,8 %**, Jizzax viloyatida **4,1 %**, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **4,8 %** va Buxoro viloyatida esa **5,5 %** ni tashkil etgan.


V BO‘LIM. NIHOHDAN AJRALISHLAR

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar  
2024-yil yanvar-dekabr, ming birlik






2024-yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni **45,1** ming birlikni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **16,9** mingtaga yoki **59,9** foizga ko‘payganligi kuzatildi.

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-dekabr



2024-yil yanvar-dekabr oylarida nikohdan ajralishlarning soni **45,1** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **28,0** mingtani (**62,0 %**), qishloq joylarida **17,1** mingtani (**38,0 %**) tashkil etdi.

Choraklar yakunlari, birlik/ulushi






*Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarining to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh sud hal qiluv qarorlari asosida yoki FHDYO ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi;*

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-dekabr

**48,1 %**



**Farzandsiz ajrashganlar**

2024-yil yanvar-dekabr oylarida 1 nafar farzand bilan nikohdan ajralishlar soni **12 906** tani tashkil etgan.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida farzandsiz nikohdan ajralishlar soni **21 726** tani tashkil etgan.

**28,6 %**



**1 nafar farzand bilan ajrashganlar**

**23,3 %**



**2 va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar**

2024-yil yanvar-dekabr oylarida 2 va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajralishlar soni **10 503** tani tashkil etgan.

## Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi

2024-yil yanvar-dekabr

**Erkaklar**

**35,4**  
yosh




**Ayollar**

**32,1**  
yosh

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida erkaklar uchun **35,4** yoshni, ayollar uchun **32,1** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo‘lgan ajralayotgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohdan ajrashganlarning **64,6 %** ini tashkil etgan.


O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar  
2024-yil yanvar-dekabr

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralish koeffitsiyentining eng yuqorisi Toshkent shahrida 1,9 promille, Sirdaryo viloyatida 1,6 promille, eng kam ko‘rsatkich Qashqadaryo viloyatida 0,8 promille, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 0,9 promilleni tashkil etgan.

Ajralishlar ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jami ajralishlarga nisbatan



Nikohdan ajralishlarning eng ko‘p ulushi Toshkent shahrida 13,1 % ga, Farg‘ona viloyatida 10,6 % ga, Andijon viloyatida 10,6 % ga, Samarqand viloyatida 10,2 % ga va Toshkent viloyatida 10,1 % ga teng bo‘lgan.

Ajralishlar ulushi kam bo‘lgan hududlar, jami ajralishlarga nisbatan



Nikohdan ajralishlar sonining ulushi nisbatan kam Navoiy viloyatida 2,8 %, Sirdaryo viloyatida 3,3 %, Jizzax viloyatida 3,8 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 3,9 % va Xorazm viloyatida esa 4,3 % ni tashkil etgan.

VI BO‘LIM. MIGRATSIYA


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

2024-yil yanvar-dekabr, ming kishi




Jinslar kesimida taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-dekabr

**Erkaklar**



**Ayollar**




Shahar va qishloq joylar  
bo‘yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-dekabr

**Shahar**




**Qishloq**




2024-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib kelganlar soni 241,8 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 103,4 ming kishini, ayollar soni 138,4 ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida 182,2 ming kishini, qishloq joylarida 59,6 ming kishini tashkil etdi.

Choraklar yakunlari, kishi/ulushi


2024-yil yanvar-mart



2024-yil yanvar-iyun




2024-yil yanvar-sentabr



*Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;*

### Ko‘chib kelganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-dekabr



2024-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib kelganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 11,5 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 80,7 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 7,8 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-dekabr




O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan 36,5 %), Qozog‘iston Respublikasi (24,2 %), Tojikiston Respublikasi (10,8 %), Qirg‘iz Respublikasi (6,9 %), Turkmaniston Respublikasi (2,5 %) va boshqa mamlakatlar (19,1 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar


2024-yil yanvar-dekabr

### Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti




Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish koeffitsiyentining eng yuqorisi Toshkent shahrida **29,9** promille, Navoiy viloyatida **11,4** promille, Toshkent viloyatida **10,5** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **1,1** promille, Andijon viloyatida **2,1** promille, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida **3,1** promilleni tashkil etgan.

### Ko‘chib kelishlar ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jamiga nisbatan




Ko‘chib kelganlarning eng ko‘p ulushi Toshkent shahrida **38,1** % ga, Toshkent viloyatida **13,4** % ga, Farg‘ona viloyatida **5,5** % ga, Samarqand viloyatida **5,5** % ga va Navoiy viloyatida **5,1** % ga teng bo‘lgan.

### Ko‘chib kelishlar ulushi kam bo‘lgan hududlar, jamiga nisbatan




Ko‘chib kelganlar sonining ulushi nisbatan kam Namangan viloyatida **1,4** %, Andijon viloyatida **3,0** %, Sirdaryo viloyatida **3,1** %, Jizzax viloyatida **3,1** % va Buxoro viloyatida esa **3,8** % ni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar  
2024-yil yanvar-dekabr, ming kishi




Jinslar kesimida taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-dekabr

**Erkaklar**




**Ayollar**




Shahar va qishloq joylar  
bo‘yicha taqsimlanishi  
2024-yil yanvar-dekabr

**Shahar**




**Qishloq**




2024-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib ketganlar soni **250,4** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **107,5** ming kishini, ayollar soni **142,9** ming kishi, ko‘chib ketganlar soni shahar joylarida **173,6** ming kishini, qishloq joylarida **76,8** ming kishini tashkil etdi.

Choraklar yakunlari, kishi/ulushi


**2024-yil yanvar-mart**



**2024-yil yanvar-iyun**




**2024-yil yanvar-sentabr**



*Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan chiqarishda tuziladigan ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;*

### Ko‘chib ketganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-dekabr



2024-yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib ketganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 12,0 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 80,0 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 8,0 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

### Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-dekabr




O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami 81,1 %), Rossiya Federatsiyasi (14,8 %), Janubiy Koreya (0,9 %), Qirg‘iz Respublikasi (0,7 %), Turkmaniston Respublikasi (0,4 %) va boshqa mamlakatlar (2,1 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar


2024-yil yanvar-dekabr

### Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqorisi Toshkent shahrida **23,3** promille, Navoiy viloyatida **12,7** promille, Toshkent viloyatida **9,4** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **1,7** promille, Andijon viloyatida **2,6** promille va Farg‘ona viloyatida **3,7** promilleni tashkil etgan.

### Ko‘chib ketishlar ulushi ko‘p bo‘lgan hududlar, jamiga nisbatan



Ko‘chib ketganlarning eng ko‘p ulushi Toshkent shahrida **28,6** % ga, Toshkent viloyatida **11,5** % ga, Qashqadaryo viloyatida **7,1** % ga, Samarqand viloyatida **6,5** % ga va Farg‘ona viloyatida **6,1** % ga teng bo‘lgan.

### Ko‘chib ketishlar ulushi kam bo‘lgan hududlar, jamiga nisbatan



Ko‘chib ketganlar sonining ulushi nisbatan kam Namangan viloyatida **2,1** %, Sirdaryo viloyatida **3,4** %, Andijon viloyatida **3,6** %, Jizzax viloyatida **3,9** % va Xorazm viloyatida esa **4,9** % ni tashkil etgan.



## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar)da istiqomat qiluvchi aholi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023-yil 24-maydagi 10-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

**Demografiya mehnat va gender statistikasi boshqarmasi**

Tel: 71 203 80 00 (ichki 1240)

[z.yuldoshev@stat.uz](mailto:z.yuldoshev@stat.uz)

PRESS-RELIZ

